

**“O‘ztransgaz” AJning 2023 yil davomida korrupsiya faktlariga doir
murojaatlarni ko‘rib chiqish natijalari haqidagi
HISOBOT**

2023 yil davomida “O‘ztransgaz” AJ Komplayens-nazorat bo‘limi tomonidan jami 22 ta (18 tasi – 2023 yilda va 4 tasi – 2022 yilda kelib tushgan) xodimlarning noqonuniy xatti-harakatlari yuzasidan murojaatlar ko‘rib chiqilgan. Murojaatlarning 2 tasi Andijon viloyatidan, 7 tasi Toshkent shahridan, 3 tasi Qashqadaryo viloyatidan, 4 tasi Farg‘ona viloyatidan, 3 tasi Samarqand viloyatidan, 1 tasi Surxandaryo viloyatidan, 1 tasi Navoi viloyatidan va 1 tasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xo‘jayli tumanidan kelib tushgan. Murojaatlarning 5 tasi Prezident “Portali”, 8 tasi Prezident veb-sayti, 1 tasi Prezident Call markazi, 5 tasi Prezident ishonch telefoni, 1 tasi “O‘ztransgaz” AJ rasmiy veb-sayti va 2 tasi pochta orqali kelib tushgan.

Ko‘rib chiqilgan murojaatlarning 3 tasi bo‘yicha xizmat tekshiruvi o‘tqazilgan va qonuniy chora ko‘rish uchun huquqni muxofaza qilish idoralariga yuborilgan, 17 tasi bo‘yicha tushuntirish berilgan va 2 tasi qanoatlantirilgan.

Murojaatlarda qayd etilgan xolatlar bo‘yicha aloqador shaxslar bilan profilaktik suxbatlar amalga oshirildi.

**Komplayens-nazorat
bo‘limi boshlig‘i v.v.b.**



J.Xolmurzayev